

ShAYX XUDOYDOD VALI MA'NAVIIY MEROSI VA UNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI.

Muzaffarov N.B. -

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi katta o'qituvchisi*

XXI asrda globallashuv jarayonlari jadallashib, axborot oqimi keskin kuchaygan bir davrda inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb yetmoqda. Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa — bilimli, raqobatbardosh, lekin ayni paytda yuksak ma'naviyatli, axloqan pok, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda milliy-ma'naviy meros, xususan, tasavvuf ta'limoti va uning yirik namoyandalarning qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo tasavvuf maktabi ko'plab buyuk allomalar, shayxlar va avliyolarni yetishtirib bergan. Ular orasida Shayx Xudoydod Vali alohida o'rin tutadi. Uning irfoniy qarashlari, axloqiy-pedagogik g'oyalari asrlar davomida xalq ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan.

Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi — Shayx Xudoydod Valining ma'naviy merosini chuqur tahlil qilish, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritish va zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'un jihatlarini ochib berishdan iborat.

Shayx Xudoydod Vali XV–XVI asrlarda yashab ijod qilgan tasavvuf arboblardan biri bo'lib, bu davr Markaziy Osiyo tarixida murakkab siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Ana shunday murakkab sharoitda tasavvuf maktablari jamiyatda barqarorlik, axloqiy tarbiya va ruhiy poklanishning muhim tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Tarixchi va tazkiranavislarning qayd yetishicha, Shayx Xudoydod Vali yashagan davrda ilm-fan, madrasalar faoliyati, diniy-ta'limiy muassasalar jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan.

Shayx Xudoydod Vali haqidagi ma'lumotlar asosan quyidagi manbalarda uchraydi:

- tasavvufiy manoqiblar
- tarixiy tazkiralalar
- zamonaviy ilmiy tadqiqotlar

Xususan, **“Manoqibi Shayx Xudoydod Vali”, Komilxon Kattaevning “Shayx Xudoydodi Vali tarixi”**, shuningdek, Alisher Navoiy an'analari tayangan tazkiraviy asarlarda uning hayoti va faoliyati haqida muhim ma'lumotlar berilgan [5, 32].

Tasavvuf — bu inson qalbini poklash, nafsni tarbiyalash, Allohga muhabbat orqali ma'naviy kamolotga yerishish yo'lidir. Shayx Xudoydod Vali tasavvufni faqatgina diniy amallar majmui sifatida yemas, balki mukammal tarbiya tizimi sifatida talqin yetadi.

Shayx Xudoydod Valining qarashlarida nafs tarbiyasi markaziy o'rin egallaydi. Unga ko'ra, nafsni yengmagan inson haqiqiy ilmga ega bo'la olmaydi. Bu fikr pedagogik jihatdan ham muhim bo'lib, o'quvchida o'zini nazorat qilish, intizom va mas'uliyatni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shayx Xudoydod Valiga ko'ra, komil inson ilmi bo'lishi, axloqli, sabrli hamda jamiyatga foydali bo'lishi lozim. Bu tushuncha bugungi pedagogika fanidagi “har tomonlama rivojlangan shaxs” modeli bilan to'liq uyg'unlashadi.

Shayx Xudoydod Vali ilmni axloq bilan uyg'un holda berishni asosiy shart deb bilgan. U “ilm amal bilan bezatilmasa, u yukdir” degan mazmundagi fikrlari orqali bilimning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Shayx Xudoydod Vali asarlarida va manoqiblarida quyidagi axloqiy fazilatlar keng targ'ib qilinadi:

- halollik
- kamtarlik
- sabr-toqat
- ota-onaga hurmat
- mehr-oqibat

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar Shayx Xudoydod Valining qarashlari bilan mazmunan uyg'unidir.

Shayx Xudoydod Vali ustoz-shogird munosabatlarini tarbiyaning yeng muhim vositasi deb bilgan. Ustoz shaxsiy namuna orqali tarbiya berishi lozimligini ta'kidlagan. Bu tamoyil bugungi pedagogikada "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" konsepsiyasi bilan mos keladi.

Shayx Xudoydod Vali yashagan davrda maktablar asosan:

- masjid qoshidagi maktabxonalar,
- Qur'on o'qish, savod chiqarish,
- oddiy hisob va axloqiy nasihatlar asosida faoliyat yuritgan.

Bu maktablarda ta'lim faqat bilim berish yemas, balki tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Shayx Xudoydod Vali aynan shu jihatga alohida etibor qaratgan. Shayx Xudoydod Valining pedagogik qarashlarida yeng muhim tamoyil: "Ilm tarbiyasiz bo'lsa, qalbni og'irlashtiradi" degan g'oyadir.

Shayxning fikricha bolaga faqat o'qish-yozishni o'rgatish yetarli yemas, har bir bilim axloqiy maqsad bilan berilishi kerak. Savod chiqarish jarayoni odob, halollik, sabr bilan birga olib borilishi lozim.

Manoqib va rivoyatlarda Shayx Xudoydod Valining bolalar tarbiyasida:

- muloyimlik,
- zo'ravonlikdan yiroq bo'lish,
- asta-sekinlik bilan o'rgatish zarurligini ta'kidlagani qayd yetiladi.

O'sha davr maktablarida bolaga qattiq tanbeh, majburlash, qo'rquv orqali o'qitish keng tarqalgan yedi.

Shayx Xudoydod Vali "Qalb sinib o'rganilgan ilm baraka topmaydi" degan mazmunga yaqin fikrni ilgari surgan. Bu yesa insonparvar pedagogikaning ilk ko'rinishlaridan biridir. Shayx Xudoydod Vali maktab muallimini axloqiy yetuk, sabrli, halol va shaxsiy namuna ko'rsatuvchi inson bo'lishi kerak deb hisoblagan. Muallimning odobi bolaga darsdan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi, muallim ilmni yemas, avvalo insoniylikni o'rgatadi. Bu g'oya bugungi kunda ham: "O'qituvchi shaxsiy namunadir" tamoyili sifatida etirof yetiladi.

Shayx Xudoydod Valining fikricha, maktabda: Qur'on o'qish, savod chiqarish bilan bir qatorda: odob, kattalarga hurmat, ota-onaga itoat, yolg'ondan yiroq bo'lish kabi axloqiy tushunchalar muntazam o'rgatilishi lozim. Bunday yondashuv: maktabni faqat bilim maskani yemas, balki tarbiya o'chog'i sifatida ko'rishga olib kelgan. Tasavvufiy ta'limotga ko'ra, nafs tarbiyasi yerta yoshdan boshlanishi lozim. Shayx Xudoydod Vali ham bolalikni: tarbiya uchun yeng qulay davr deb bilgan. Bolada sabr, qanoat, kamtarlikni shakllantirish, haddan oshish, kibr, yolg'on kabi illatlarning oldini olish masalalari haqida fikrlar bildirgan [2, 73]

Shayx Xudoydod Vali rasmiy maktab islohoti o'tkazmagan bo'lsada ammo u:

- maktab ta'limi mazmunini axloqiy lashtirish,
- o'qituvchi shaxsini markazga qo'yish,
- bolaga inson sifatida munosabatda bo'lish g'oyalarini ilgari surgan. Shu sababli uni "maktab ta'limining ma'naviy-pedagogik islohotchisi"
- deb baholash mumkin.

Shayx Xudoydod Valining qarashlari bugungi boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy soatlar, "Ma'naviyat asoslari" fanlari uchun muhim metodik manba bo'la oladi [4, 627]. Uning g'oyalari asosida o'qituvchi yetikasi, bolalar bilan insonparvar munosabat, bilim va tarbiya birligi tamoyillari shakllanadi. Shayx Xudoydod Valining maktab ta'limiga doir qarashlari bevosita yozma pedagogik dastur shaklida bo'lmasa-da, uning tasavvufiy va axloqiy ta'limoti maktab ta'limining mazmuniy islohiga asos bo'lgan. U bolani bilimli yemas, avvalo inson qilib tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Har bir bosqichda Shayx Xudoydod Valining merosidan foydalanish yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shayx Xudoydod Valiy dehqonchilik va turli nazr-niyozlardan tushgan nafaqalar, oziq-ovqatlarni qat'iy hisob bilan birinchi navbatda, och qolgan, nochor ayollar va bolalarga, mayib-majruhlarga berishni joriy qilgan. Bu yesa uning kambag'alparvar shaxs bo'lib, har doim o'zgalari

manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yganligini ko'rsatadi va bugungi mustaqil davlatimiz ijtimoiy siyosatining asosiy mohiyatini tashkil yetadigan "aholini kuchli ijtimoiy himoyalash" tamoyili bilan mantiqan bog'lanadi. Shayx Xudoydod Valiy tariqatda shogirdlar masalasiga ham alohida etibor qaratgan va tariqatdagi ma'rifat bosqichini asosiy bosqichlardan biri sifatida etirof yetgan. Ushbu bosqichda shogirdlariga sahih hadislar, Qur'on oyatlaridan saboq bergan. Bunda mushohada qilish uslubi muhim o'rin tutgan. "Manoqib"da Shayx Xudoydod Valiy yashagan muhit, Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi aholining o'troqlashish jarayoni, savodlilik darajasi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, muallif Shayx Xudoydod Valiy tilidan quyidagi jummalarni keltiradi: "Biz hozir bandalarga xos bo'lgan ta'lim talabini pasaytirib yuborganmiz, nima uchun o'troq bo'layotgan xalqlar orasida donishmandlar yo'q" [11,160] - deb kuyunadi. Shayx Xudoydod o'z muridlariga "Olimlik bu amaliyot bilan ilmning birlashmasi" deb tushuntiradi. Shu bois o'zi o'qitayotgan talabalar bilan ham amaliy, ham nazariy mashg'ulotlar olib borib, ularni bilim darajasini tekshirib turganligi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalarda qayd yetilgan.

Shayx Xudoydod zamona beklari, oqsuyaklar, askar boshliqlari qatorida bo'lmadi, aksincha mazlum sinfning orasida, ular bilan hamnafas yashadi. Mehnatkashlarning qayg'ulari bilan yig'lashga majbur bo'ldi. Shayboniy xukmdorlar Shayx Xudoydodga o'zlari uchun madad so'rab, ko'plab sovg'a va in'omlar yuborsalar ham, o'z saroylariga taklif qilsalar ham Hazrat Xudoydod ularni qaytarib, ayrimlarini yesa beva-bechoralarga tarqatar yedi. Shayx Xudoydod "Al-faqrun faxrun" ya'ni, "faqirligim fahrimdir", degan naqlga doimo amal qilar yedi.

Bir voqeani Hazratning o'zi shunday hikoya qiladi: "Ustoz va pirim Shayx Jamoliddin Xurosonga, Xirotda ketganidan so'ng Muhammad Shayboniyxon men bilan oshnochilik qilish maqsadida bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo unga yaqinlashmasdim, ko'rinish ham bermasdim. Zero, Payg'ambar alayhissalom shunday deganlar: "Faqirlarga ziyorat qilguvchi amir yeng yaxshi insondir, mol dunyo maqsadida amirlarni ziyorat qilguvchi faqir yesa yeng yomon odamdin". Shundan keyin Muhammad Shayboniyxon o'zi bir yurishi asnosida Shayx Xudoydod Vali yashaydigan xonaqohga kelib qo'nadi va Xazratni yana taklif qiladi. Bu haqda shunday deydi: "Muhammad Shayboniyxon taklifini noilojdan qabul qilib, huzuriga yo'l oldim. Hashamatli qarorgohi, sipohiyarlari dabdabasi ko'zimga samon cho'pidek bo'lib ham ko'rinmadi." [12, 155]

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oddiy xalq orasida juda katta shuhrat qozongan tasavvuf arbobi Shayx Xudoydod Vali o'z zamonasida ko'pgina xukmdorlar nazariga tushib qolgan yedi. Podsholar ko'pincha ul zotning o'sib borayotgan nufuzidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lardilar. Lekin Shayx Xudoydod Vali o'z ta'sirini faqatgina xalq osoyishtaligi, farovonligi yo'lida sarflar yedi. U kishi xech qachon xukmdorlar xuzuriga o'z foydasini ko'zlab bormagan. Muhammad Sharif al-Husayniyning "Xujjat ul-zokirin" tazkirasida Shayx Xudoydod Vali va Movarounnahr hukmdorlaridan Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Xulosa qilib ayatadigan bo'lsak, Shayx Xudoydod Valining ma'naviy-ma'rifiy merosi bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida bebaho manba hisoblanadi. Uning tasavvufiy qarashlari, komil inson haqidagi g'oyalari, axloqiy tarbiya tamoyillari zamonaviy pedagogika bilan uzviy uyg'unlashadi. Ushbu merosdan ilmiy asosda foydalanish barkamol avlod tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. MAT. 17-jild. -T.: Fan, 2001;
2. Komilov, N. (2020). Tasavvuf. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. „O'zbekiston Fanlar akademiyasi“, *O'zbekiston milliy yensiklopediyasi (O'-harfi)*. Toshkent: „O'zbekiston milliy yensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
4. Saydullayev A.N. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida ta'limtarbiya masalalari // PPSUTLSG – 2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (YeJAR) ISSN 2181-2020, Page-627
5. Kattayev K.. *Shayx Xudoydodi Vali tarixi*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015 — 32-bet.
6. <https://scholar.google.com/citations?user=OOIjBPgAAAAJ&hl=ru>

7. J.TAVMURADOV. [Mirzo Bedilning falsafiy va tasavvufiy g'oyalarini shakllanishida adabiyot, til va uslub masalalari](#). ЎЗМУ Аxborotnomasi. 121.22.2025 –Б.196-198
8. J.TAVMURADOV. Fikr - falsafiy tafakkur asosi // “Yangi Ўzbekistonda ijtimoiy fanlar transformasiyasining nazariy-metodologik masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami. –Б. 306-307
9. Jafar Shomirzayevich Mustafayev. [Jadidism and socio-political situation in turkestan at thye beginning of thye xx cyentury](#) // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary, 2021.
10. https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=6irZPc4AAAAJ&viyew_op=list_works&gmla=APjjw uYfpNuG6HT8COXE5BGo1yxD1yXxZnyubcTcGcVcUQ2dfyvYFrLjhlQWoPXV8ioWuwHDmg305 VS8vKj1UXIBMfAWmSME9Z4TYTpf7Le4yeA
11. Улуғ авлиё Шайх Худойдод Вали (Маноқиб). Форс тилидан Сайфуддин Сайфуллох таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 160
12. Инояттов С. Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгусида. Т. “Шарқ”. 2006, 155-бет.

REZYUME:

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf maktabining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Shayx Xudoydod Valining hayoti, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati, tasavvufiy qarashlari va ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati keng qamrovda tadqiq yetiladi.

Kalit so'zlar: Shayx Xudoydod Vali, tasavvuf, irfon, ma'naviy meros, komil inson, axloqiy tarbiya, manoqib, ustoz-shogird, pedagogik meros, milliy qadriyatlar.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются жизнь, духовная и педагогическая деятельность, мистические взгляды шейха Худойдада Вали, одного из представителей центральноазиатской школы мистицизма, и их значение в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: шейх Худойдад Вали, мистицизм, мудрость, духовное наследие, совершенная личность, нравственное воспитание, отношения учитель-ученик, педагогическое наследие, национальные ценности.

RESUME:

This scholarly article provides a comprehensive study of thye life, spiritual and yeducational activitiyes, and Sufi viyews of Shaykh Khudoydod Vali, one of thye prominent representatives of thye Cyentral Asian Sufi tradition, as wyell as thyeir significancye in contemporary yeducation and upbringing.

Keywords: Shaykh Khudoydod Vali, Sufism, Gnosis / Spiritual knowledge, Spiritual hyeritage, Perfect human, Moral yeducation, Manaqibs, Teacher-disciple relationship, Pedagogical legacy, National valuyes.